

UO'K(UDC, УДК): 82-1/-9

BADIIY ADABIYOTDA LAKONIZMNING NAMOYON BO'LISHI¹⁵

Zokirova Barchinoy Maxmud qizi
Toshkent davlat transport universiteti
tayanch doktoranti,
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: keldiyorovab@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola nutqda va badiiy adabiyotda fikrlarni qisqa va ixcham qilish san'ati bo'lgan lakonizmning amaliyotda namoyon bo'lishini tadqiq qiladi. Ushbu uslub qadim tarixga ega bo'lib, jumalarning qisqa, lo'nda va sarmazmun bo'lishini ta'minlagan. Xususan, bu uslubning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi va qiyosiy tahlil qilinadi. Lakonizmning nazariy asoslari va uslubiy tamoyillari va alohida xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Lakonik uslub nafaqat badiiy adabiyotda, balki lingvistikada ham ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilganligi va misollar bilan to'ldirilganligi fikrimiz dalilidir. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, "qisqalik" yoinki "lakonizm" atamasi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik sohasida ham keng tarzda qo'llanilgan va hattoki ma'lum bir tadqiqotning obyekti sifatida ham o'rganilishi mumkin ekanligi tadqiqot davomida ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan. Shu bilan birga tadqiqot jarayonida lakonik uslubning badiiy adabiyotda qay holatda namoyon bo'lishi, qaysi janrlarning yaratilishida ma'lum darajadagi unsur vazifasini bajarishi va qaysi uslublar uchun vositachi bo'lib xizmat qilishi aytib o'tiladi. Lakonik uslubning "minimalizm", "Aysber nazariyasi", ellipsis, kompressiya hodisasi kabi atamalar bilan o'zaro aloqasi va o'xshashliklari qiyosiy tahlil qilinadi. Bundan tashqari badiiy adabiyotda lakonik uslub uchun qulay va munosib bo'lgan janrlar ketma-ketligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

KALIT SO'ZLAR

Lakonizm, lakonik uslub, minimalizm, aysberg nazariyasi, ellipsis, siqqlik, nuktadonlik, kompressiya hodisasi, epigrama, aforizm.

Received: August 19, 2025

Accepted: September 11, 2025

Available online: November 16, 2025

¹⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Zokirova B. Badiiy adabiyotda lakonizmning namoyon bo'lishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 198-211.

MANIFESTATION OF LACONISM IN LITERATURE***Zokirova Barchinoy Makhmud qizi****PhD student of**Tashkent State Transport University,**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: keldiyorovab@gmail.com*

ABSTRACT

This article examines the practical manifestation of laconism, the art of expressing thoughts briefly and concisely in speech and literature. This style has ancient roots and ensures that sentences are short, succinct, and meaningful. The article discusses and comparatively analyzes the role and significance of this style in linguistics and literary studies. It considers the theoretical foundations, methodological principles, and specific features of laconism. The fact that the laconic style has been studied and illustrated with examples by many scholars in both literature and linguistics supports our argument. Based on the information presented, we can assert that the term “brevity” or “laconicism” is widely used not only in literary studies but also in linguistics, and can even be studied as the subject of specific research, as scientifically substantiated in this study. Additionally, the research explores how the laconic style manifests in literature, which genres it serves as an essential element in creating, and which styles it acts as an intermediary for. The article comparatively analyzes the relationships and similarities between the laconic style and terms such as “minimalism,” “Iceberg Theory,” ellipsis, and the phenomenon of compression. Furthermore, it examines the sequence of genres in literature that are suitable and appropriate for the laconic style. The research employs comparative-typological and contextual analysis methods.

KEY WORDS

Laconism, laconic style, minimalism, Iceberg Theory, Ellipsis, the art of dotting, compression, epigram, aphorism.

ПРОЯВЛЕНИЕ ЛАКОНИЗМА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**Зокирова Барчиной Махмуд кизи***докторант (PhD)**Ташкентский государственный**транспортный университет,**Ташкент, Узбекистан**E-mail: keldiyorovab@gmail.com***АННОТАЦИЯ**

Данная статья исследует практическое проявление лаконизма – искусства краткого и сжатого выражения мыслей в речи и в художественной литературе. Этот стиль, имеющий древнюю историю, обеспечивал краткость, емкость и содержательность высказываний. В частности, в работе проводится сравнительный анализ роли и значения этого стиля в лингвистике и литературоведении, определяются теоретические основы, методологические принципы и особенности лаконизма. То, что лаконичный стиль изучался многими учеными (как лингвистами, так и литературоведами) и иллюстрировался примерами, подтверждает нашу точку зрения. Основываясь на вышеприведенной информации, можно утверждать, что термин “краткость” или “лаконизм” широко используется не только в литературоведении, но и в лингвистике. В ходе проведенного автором статьи анализа было научно обосновано, что данное явление и обозначающие его термин могут быть объектом отдельного исследования. Также в статье были проанализированы многочисленные примеры использования данного стиля в художественной литературе, определены жанры, в которых он может выступать в качестве одного из определяющих признаков, и стили, в формировании которых он может принимать косвенное участие. Кроме того, в работе представлен сравнительный анализ взаимосвязи и сходства лаконизма как стилистической особенности с такими понятиями, как «минимализм», «теория айсберга», эллипсис, явление компрессии, последовательно рассмотрены жанры художественной литературы, для которых лаконизм стиля является наиболее органичным признаком. В процессе исследования использовались методы сравнительно-типологического и контекстуального анализа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Лаконизм, лаконичный стиль, минимализм, «теория айсберга», компактность, явление компрессии, эпиграмма, афоризм.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda tilning ixchamligi uning kommunikativ samaradorligini oshirishga yordam beradigan yetakchi omillardan biridir. Til qanchalik lo‘nda, aniq va puxta ifodalansa, shunchalik ta’sirli va chuqur mazmunga ega bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda va tilshunoslikda nutqdagi ixcham ifoda shakllari an’anaviy tarzda til vositalari iqtisodini o‘rganish muammolari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan va bugunga qadar o‘rganib kelinmoqda. Badiiy adabiyotda tilni xarakterlovchi va uning obrazlilikidan paydo bo‘ladigan asosiy xususiyatlaridan biri ham aynan qisqalik va ravonlikdir. Har qanday mazmundagi fikrning sodda va ravon ifodalanishi kitobxon uchun ma’lum darajada qulaylik yaratadi va qiziqishlarining yanada ortishiga sabab bo‘ladi.

Darhaqiqat, badiiy adabiyot ham fikrni sodda va tushunarli tilda, keng mazmunni ixcham jumlalarga singdira olishi bilan jozibali. Xalq tilining ana shu xususiyati haqida A.M.Gorkiy yana quyidagicha fikrni bildiradi: “Xalq tiliga yaqin bo‘l”, “Ikki-uch so‘zdan tasvirni yaratuvchi soddalik, qisqalik va sog‘lom kuch izla” “So‘zning soddaligida – buyuk hikmat bor, maqollar va xalq qo‘shiqlari har doim qisqa, ularda butun boshli kitoblarda ifodalanadigan mazmun aks etadi” (Abdumannatova N., 2023, 59). Demakki, jumlar qanchalik muxtasar bo‘lsa, mazmun ham shu qadar chuqur va tushunarli bo‘ladi. “Lakonizm” atamasi esa aynan matndagi va nutqdagi qisqalikni ta’minlash uchun xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Lakonizm – bu nutq yoki matnda fikrlarni minimal miqdorda so‘z bilan, lekin maksimal darajada aniq va ta’sirli tarzda ifodalash san’ati. Uning adabiyotdagi ahamiyati nafaqat qisqalikda, balki har bir so‘zning o‘ziga xos semantik og‘irlikka ega bo‘lishidadir. Lakonizmning tarixiy ildizlari qadimgi Sparta madaniyatiga borib taqaladi, u yerda qisqa va tushunarli javoblar madaniyatning bir ko‘rinishi sifatida qaralgan. Lakonizm nafaqat badiiy asarlarda, balki ilmiy, publitsistik va hattoki kundalik muloqotda ham samarali vosita hisoblanadi. Lakonik uslubning kelib chiqishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yunonistonda Sparta aholisi o‘zlarining qisqa va tushunarli javoblari bilan mashhur bo‘lgan. Tarixchilarning yozishicha,

Filipp Makedonskiy Sparta shahrining darvozasiga keladi va shaharni bosib olishini, kulini ko'kka sovurishini aytadi va shahar aholisiga tahdid qiladi. Spartaliklar javob tariqasida bitta so'zdan iborat bo'lgan jumla ishlatadilar: "Agar". Bu tarixiy misol lakonizmning mazmun va mohiyatini to'liq ochib beradi. "Lakonik" so'zi esa aynan shu mintaqa nomidan (Lakoniya) olingan. Keyinchalik bu uslub antik adabiyotda, xususan, Horace va Cicero, Gomer va Platon asarlarida o'z aksini topgan. Ayniqsa ushbu olimlarning yozma manbalarida, qisqa savol javobga asoslangan suhbatlarida lakonik uslubdan samarali foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Bu uslub doimo o'z oldiga qisqalikni va aniqlikni maqsad qilgan va donishmand fikrlarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Xususan, Grant Faulkner shunday deydi: "Haqiqatan ham, qisqa shakl yozuvchidan ko'proq kamtarlikni talab qiladi. Siz ba'zi bir so'zga boy va uslubiy bo'yoqdorlikka burkangan asarlar singari diqqatni o'ziga jalb qilish uchun yozmayapsiz, balki voqealarning barcha nozikliklarini namoyish qilgan holda, aynan o'ziga mos joyda mos keladigan so'zni tanlab olish uchun yozyapsiz. Aslida qisqalik estetikasi nafaqat qisqa asarlarga taalluqli. Men ko'p yozganimda ham, "maksimal darajada tushunarlilik"ni maqsad qilmasdan, iboralar orasidan qaysi so'zlarni olib tashlab, paragraflar va boblarni qanday qilib ishoralar bilan harakatlantirish mumkinligi haqida fikr yuritaman. Men romanimning boblari orasidagi matnlarni bog'lash o'rniga, ba'zi joylarda bo'sh maydonlar yaratishni tasavvur qilaman. Qoralamamdan butun bir sahifalarni olib tashlaganimda esa, go'yoki narsalari uyg'unlashmagan javonni tozalagandek yoqimli zavqni his qilaman. (Folkner G., 2023, 21)

A.P. Chexovning fikricha, qisqalik talantning hamshirasi. Darhaqiqat, qisqalik yo'q joyda badiiylik ham bo'lishi mumkin emas. Lakonizm o'zbek mumtoz adabiyoti asarlari va estetikasi uchun ham xarakterlidir. Navoiyning ko'rsatishicha, yozuvchining so'zi ikki xususiyatga ega bo'lishi kerak: chinlik (rostlik) va muxtasarlik (qisqalik, lakonizm): "Kishi chinda so'z desa zebo durur, Necha muxtasar bo'lsa avlo durur" (Sulton I., 2005, 135).

Badiiy asar maqsadini ochishga xizmat qilmaydigan bironta soʻz ishlatmagan, qisqa gapirib, koʻp maʼno anglatgan sanʼatkor doimo yutgan. Ularning tushunchasida soʻzni tejash zarni tejashdan qimmatlidir, adabiy laqmalik, koʻp soʻzlilik paxtavon miltiqqa oʻxshaydi, tovushi bor-u oʻqi yoʻq. Bekorchi shovqin hisobiga asardagi maqsadni, uning badiiyligini yoʻqqa chiqaradi. (Umurov H., 2004, 152)

Aksariyat mashhur soʻz ustalari lakonizmdan unumli foydalanib, qisqalikka erishishni eng muhim ijodiy vazifa deb hisoblashgan va stilistik talab sifatida qabul qilishgan. Ayrim adabiyotshunoslik manbalarida lakonizm atamasi “muxtasarlik”, “siqiqlik” va “nuktadonlik” tarzida ham ifodalangan. Bir soʻz bilan ifodalanganda “lakonizm” atamasi maʼlum darajada “qisqalik” soʻzi bilan ekvivalent boʻla oladi. Qisqalik esa Gʻarb va Sharq adabiyotida birdek muhim va aksariyat yozuvchilar tomonidan afzal koʻriladigan uslubdir.

Lakonizm atamasi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikda ham keng tarzda qoʻllaniladigan va oʻrganiladigan til vositasi hisoblanadi. Oʻtgan asrning 80-yillarida chet el tilshunoslari P. Passi, G. Suit, O. Jespersen va boshqalarning ishlari ushbu muammoga bagʻishlangan edi. Rus tilshunosligida Boduen de Kurtene birinchi marta lakonizm va allagizmlarga eʼtibor qaratdi. Badiiy matnlarning lingvistik tahlili V.V. Veresaeva faqat til va nutqning lakonik shakllari keraksiz, ogʻir narsa sifatida yoʻq qilinishi kerak boʻlgan qoʻshimcha vositalar va shakllar emasligini tasdiqlaydi. Bu til rivojlanishining eng yuqori bosqichi boʻlib, ixcham, ammo mazmuniga zarar yetkazmaydigan, aksincha, oʻz fikrini siqib ifodalash qobiliyatiga ega boʻlgan shaxs tilni mahorat bilan oʻzlashtirib oladi, undan foydalanish vositasi sifatida foydalanadi, badiiy maqsadlar va muallif niyatiga xizmat qiladi (Abdumannatova N., 2023, 59).

Har bir aniq holatda qisqartirishning usulini tanlash kommunikativ vazifaga va matnning xususiyatlariga bogʻliq. Shunday ekan, badiiy adabiyotda eng munosib soʻzlarni tanlash, manfaatsiz soʻzlardan voz kechish va maksimal natijaga erishish barcha yozuvchi va shoirlarga xos boʻlgan qobiliyatlardan emasligi barchamizga maʼlum. Eng mohir qalam ustalarigina oʻz ijodlarida lakonik uslubdan samarali

foydalanishi va kitobxon uchun o'zgacha zavq taqdim eta olishi mumkin. Lakonizm yozuvchining mahoratini sinovdan o'tkazadi, chunki yozilgan har bir so'z ma'lum bir vaznga va vazifaga egadir. So'zlar shunday mahorat bilan tanlanadiki, kitobxon asosiy fikrni ortiqcha tafsilotlarsiz o'zlashtiradi. Bu uslub hikoya, she'r, maqol va boshqa turdagi dramatik asarlarda ortiqcha tasvir va detallardan voz kechib, kitobxonga o'zi xulosa qilishi va mantiqiy fikrlashiga imkon yaratadi. Lakonizmning asosiy tamoyillari ham aniqlik va obrazlilikni o'zida mujassam ettirishidadir. Bu uslubda kompozitsion jihatdan voqea va hodisalar ketma-ketligi mantiqiy va ixcham shaklda tuzilganligi, ortiqcha epizodlardan, sahnalardan va tasvirlardan voz kechilganligi yozuvchi uchun asosiy mezon sifatida ahamiyatlidir. Stilistik jihatdan esa soddalik, tabiiylik va murakkab qurilmalardan foydalanmaslik holatlari ko'zga tashlanadi. Bu uslub orqali o'quvchi o'z dunyoqarashini kengaytirishi, hayot mohiyatini, insoniy munosabatlarni o'zgacha tarzda anglab yetishi, yashirin tarzda ifodalangan ma'lumotlarni sintez qilish qobiliyatini o'zlashtiradi. Matndagi semantik zichlik va psixologik chuqurlikning mavjudligi ham yuqorida keltirilgan talablar singari muhimdir.

Badiiy matndagi qisqalik, lo'ndalik va soddalik haqida so'z borar ekan, lakonik uslubni minimalizm, aysberg nazariyasi, ellipsis, haiuku, epigramma, aforizm va kompressiya kabi hodisalar bilan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Minimalizm – XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1980-yillarda rivojlangan badiiy uslubiy oqim bo'lib, bunda ifodalanayotgan fikrlar va ma'lumotlarning soddaga, qisqaga va ortiqcha tafsilotlardan holi ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Bu oqimda balandparvoz va uslubiy bo'yoqdor so'zlardan emas, balki eng oddiy ammo xalqchil tildan foydalanish afzal ko'riladi. Minimalizm asar mualliflari voqealarni minimal ko'lamda yaratsalar-da, mazmunning chuqurligiga e'tibor qaratadilar. Bu oqimda yaratilgan asarlarning asosiy xususiyatlari shundaki, bunda til soddaga, ma'lumotlar kam va berilgan vaziyatlar oddiy, ammo chuqur psixologik ta'sirga ega bo'ladi.

XX asr boshlarida Ezra Pound, Stefen Kreyn, Uilyam Karlos Uilyam kabi yozuvchilarning asarlari aynan minimalistik ruhda yozilgan. 1970-yilning boshlariga kelib, bu uslub Amerika adabiyotida Raymon Karverning asarlari orqali mashhurlikka erisha boshlaydi va hozirga zamonaviy adabiyotda ham alohida o'ziga xosligi bilan o'quvchilar qalbidan joy olib kelmoqda.

Lakonizm va minimalizm atamaları mazmuniy va ifodaviy jihatdan bir biriga yaqin, ammo ular o'rtasida tabiati, o'rganilish darajasi, kelib chiqishi, borasida tafovutlar mavjuddir. Garchi ikkisi ham qisqalikka va lo'ndalikka asoslangan bo'lishiga qaramay quyidagi farqlarni o'z ichiga oladi:

1-jadval:

Lakonizm	Minimalizm
So'z va gap darajasida tahlil qilinadi. (Tilshunoslikda ham mavjud)	Asar uslubi va strukturasi darajasida o'rganiladi.
Asosan dialoglar, aforizmlar va hikmatli so'zlarga xos xususiyat.	Hikoyalar, qissa, she'riyatga xos tushuncha.
Gap tarkibida ixchamlikka erishiladi.	Soddalik ostida yashirin konnotatsiya bo'lishi mumkin.
Gap qisqa, ortiqcha sifatlar detallardan holi, anglashilish oson bo'ladi.	Syujet, personajlar va hajm soddaligiga e'tibor qaratiladi.
Muallifning asar tarkibidagi ixcham nutqini sezish mumkin.	Butun asarning strukturasi va qurilishi qisqalik va soddalik tamoyiliga asoslangan.
Gapirish usulining qandayligi aniq namoyon bo'ladi.	Qanday tarzda asar yozishning umumiy strukturasi namoyon bo'ladi.
Kitobxon fikrni o'qigan zahoti mazmunni anglab yetadi.	Kitobxon kontekstdan tashqari mantiqiy fikrlaydi.

Minimalizmni estetik oqim sifatida qabul qilsak, lakonizm unga uslubiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aksariyat holatlarda bu ikkisi bir-birini

to'ldiradi. Minimalizm orqali asardagi badiiy tasvir sodda va qisqa bo'lsa, aynan o'sha matndagi jumalarning ortiqcha so'zsiz ifodalanganligi lakonizmning mavjud ekanligidandir.

Aysberg nazariyasi – ushbu nazariya XX asrning boshlarida Ernest Heminguey tomonidan yaratilgan uslubiy tamoyil bo'lib, bunda matn orqali yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning bir qismigina qisqa shaklda beriladi. Qolgan qismni tushunish va sintez qilish esa o'quvchining o'ziga havola qilinadi. Ko'rinishi jihatdan sodda shaklda tuzilgan, ammo soddalik ortida yashirin hissiyotlar, turli xil g'oyalar va o'zaro konfliktlar yotadi. Aysberg nazariyasi asosida yozilgan asarlar falsafiy mazmunga ega bo'lganligi uchun ham asl mohiyatni tushunib yetish biroz vaqt talab qiladi, matn qisqa va sodda tuziladi.

Maqsad nuqtayi nazaridan “lakonizm” va “Aysberg nazariyasi” o'zaro o'xshashdir, ikki holatda ham muallif ortiqcha so'zdan qochadi, har ikkisida ham bilvosita ma'noni ifodalash holatlari kuzatiladi. Bundan tashqari detallardan qochish, faqatgina eng muhim elementlarni qoldirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatish borasida ham hamfikrlik holatlari kuzatiladi. Biroq bu ikki tushuncha o'rtasidagi tafovutlarni ko'rib chiqar ekanmiz, bu ikkisi o'zaro sinonim sifatida qabul qilinmasligini tushunib olamiz.

Aysberg nazariyasi	Lakonizm
Matnning yashirin qatlami muhim ahamiyatga ega.	Umumiy holatdagi qisqalik dastlabki o'rinda turadi.
Hikoya va roman kabi janrlarda afzal ko'riladi.	Nutqqa tegishli barcha holatlarda uchratish mumkin.
Kitobxon fikrni anglagan holda o'zi to'ldiradi.	O'quvchi fikrni qisqa muddatda anglaydi.
Lakonizmning psixologik va semantik jihatdan chuqurlashtirilgan varianti	Umumiy uslubiy tamoyil, qisqalikni ilgari suradi.

Demak, Aysberg nazariyasi orqali matnning katta qismi yashirilsa, lakonizm esa shu jarayonda ifodani lo'nda va qisqa qilib berish vazifasini bajaradi. Natijada, sodda, kam so'z, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan asar yaratiladi.

Ellipsis – (yunon. Elleipsis-tushirib qoldirish, so'z tejash) – asar tilida so'zlarni tejab ishlatish usuli. U yoxud bu fikrni ifodalash uchun eng zarur so'zlarnigina ishlatish, ikkinchi darajali so'zlarni ongli ravishda tushirib qoldirish yo'li bilan shoirlar lakonizmga erishadi. Masalan: shoir Cho'lponning “Xalq” she'ri.

Xalq dengizdir, xalq to'liqdir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, haq o'chdir..

Bu bayt ellipsisning ajoyib namunasidir. Ellipsis dialogik nutqda, maqol, hikmatli so'zlarda, she'riyat va nazmda birdek ishlatilaveradi (Boboyev T., 2002, 443)

Badiiy matn tarkibida ellipsis hodisasi lakonizmning yaratilishiga yordam beradi. Aksariyat holatlarda lakonizmni kuchaytirish uchun aynan ellipsisdan stilistik vosita sifatida foydalaniladi.

Kompressiya hodisasi – matnning umumiy mazmunini ixcham va lo'nda ifodalash usulidir. Jumla uchun ortiqcha bo'lgan detallar semantik jihatdan yoki sintaktik jihatda kichraytiriladi. Adabiyotda esa bu holat obraz yoki butun asar motivi darajasida sodir bo'lishi mumkin. Kompessiya tilshunoslik uchun ham adabiyotshunoslik uchun ham texnik vosita deb qaraladi. Lakonizm singari kompressiya hodisasidan ham matnni ixcham qilish uchun foydalaniladi, lekin bu ixcham matnning barchasida lakonizmning mavjudligi anglatmaydi. Kompessiya orqali aksariyat holatlarda sintaktik jihatdan va hajm jihatdan matn qisqaradi, ammo qisqa matnning barchasi ham lakonizmga misol bo'la olmaydi. Chunki lakonizm o'zida faqatgina lo'ndalikni emas balki, emotsional ta'sir va estetik mazmunni ham o'z ichiga oladi. Bu degani har bir lakonik uslub kompressiya hodisasini o'z ichiga olishi mumkin, lekin barcha kompressiya hodisalarida ham lakonizm unsurlari bo'lavermaydi.

Badiiy matndagi lakonizm o'z holicha mustaqil yaralmaydi, ba'zida nazariy hodisalarning paydo bo'lishiga yordam bersa, ba'zida mukammal lakonik uslubni hosil qilish uchun ma'lum bir vositalardan foydalanadi. Masalan, minimalizm oqimi uchun lakonizm nutqiy vosita hisoblansa, E. Hemingueyning nazariyasi uchun esa kerakli tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Lakonizmning o'zini shakllantirish uchun esa kompressiya va ellipsis kabi stilistik qurilmalardan samarali foydalanilish orqali ixcham va sarmazmun badiiy matn hosil qilinadi.

Aforizm – (gr. aphorismos – hikmatli so'z). “Aniqlovchi”, “chegaralovchi” degan ma'nolarni anglatadi. Bu so'zni ilk bor olim Gippokrat tibbiyot haqidagi traktatida simptom va kasallik tashxisi bilan bog'liq tarzda qo'llagan. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning muallifi hamma vaqt aniq bo'ladi. Aforizmda so'z qancha oz bo'lsa, uning ifodaliligi, o'tkirligi shuncha ortadi (To'rayeva B., 2020, 145).

Badiiy adabiyotda aforizmlar katta ahamiyatga egadir va asosan, maqollar bilan yonma-yon shaklda ishlatiladi. Aforizmlar umumiy hayotiy xulosalar, falsafiy g'oyalar va haqiqatlarga asoslangan bo'ladi va doim o'zining qisqa, sarmazmun ekanligi bilan ajralib turadi. Deyarli barcha aforizmlarning qurilishida lakonik uslub prinsiplariga tayanilgan. So'zlardagi amiqlik, saralanganlik holatlari orqali aforizmlar yanada tabiiy va tezkor holatda xalq orasida keng tarqalgan.

Ilm -insonga ziynat;

Yaxshi odam yurt tuzar,

Yomon odam yurt buzar;

Nomussiz hayotdan, nomusli o'lim yaxshi.

Ushba kichik hajmdagi aforizmlar va shu uslubda yaratilgan barcha hikmatli so'zlar o'quvchi o'ziga kerakli xulosa chiqarishga va tafakkur qilishga undaydi. Eng asosiysi aforizmlar hayot haqiqatlaridan parchalardir va doimo asoslangan va tajribadan o'tgan donishmand fikrlar jamlanmasidir. Fikrlarning teranligi, aniqligi va sanoqli so'zlarnigina talab qilish orqali yaratilganligi esa lakonik uslubning xizmatidir.

Haiku – XIV asrda Yaponiyada paydo bo‘lgan she’riy janr bo‘lib, o‘zida lakonik uslubni yaqqol namoyon qiladi. Bu turdagi she’r asosan uch misradan tashkil topadi va 5-7-5 bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Lakonik uslubning yorqin namunasi sifatida qaralishiga sabab esa, minimal so‘zlar bilan tabiat, inson ruhiy holati qalamga olinadi va qisqa shaklda ifodalanadi. Har bir misra o‘zida chuqur mazmun yuklaydi va o‘quvchini mulohaza qilishga, fikrlashga undaydi. Quyidagi misralar Matsuo Basho qalamiga mansub:

古池や蛙飛び込む水の音;

Oh, eski ko‘l..

Qurbaqa sakrar,

Suvlar shildirar.

Shu uch misra she’r orqali oddiy so‘zlar bilan tabiatning naqadar sokin va go‘zal ekanligi, umrning bardavomligi tasvirlanadi. “Qurbaqa” obrazining suvga sakrab tushishi esa hayotda kutilmagan burilishlar va voqealar bo‘lib turishini, ammo vaqt o‘tib hayot barchasi yana o‘z holiga qaytishi etishi ifodalanadi. She’rda sanoqli so‘zlar orqali chuqur falsafiy ma’no ochib beriladi, bu esa muallif lakonizmdan naqadar mohirona foydalanganligining isbotidir.

Epigramma – kichik hajmdagi hajviy she’r bo‘lib, o‘tkir, istehzoli mazmunda yoziladigan janr hisoblanadi. Qadimda Yunonistonda ibodatxona va haykallarga o‘yib yozilgan va ularda ma’budlar va qahramonlar madh etilgan. Yangi davr adabiyotida, xususan, klassitsizm she’riyatida epigramma odatda bironbir shaxsga qarshi yo‘naltiriladi va aksariyat holatlarda kutilmagan yakun bilan tugaydi. So‘nggi davr shoirlari ham epigramma janriga murojaat qilganlar, o‘zbek adabiyotida esa H.H. Niyoziy, G‘. G‘ulom kabi yozuvchilar tomonidan yozilgan. Epigrammalarni yaratishda ham lakonik uslubdan samarali tarzda foydalanilgan va natijada o‘tkir va chuqur mazmunli hazil-mutoyibani o‘z ichiga olgan kichik hajmdagi asar yaratishgan erishilgan. Bu janrda lakonizm uslubi yaqqol ko‘zga tashlanadi, chunki qisqalik tamoyiliga amal qilinmasa epigramma kutilganidek ta’sirli va o‘quvchida hissiy reaksiya uyg‘ota olmagan bo‘lardi.

So‘yla, so‘k, der asr. Biz so‘kinmaymiz.
To‘p otsa ham jimmiz, hech o‘kinmaymiz.
Ajnabiylar ko‘kda uchoqda uchar,
Biz avtomobilga hatto minmaymiz.
Qushday ko‘kda uchar,
Boq, yerdagilar,
Bizni yerga ko‘mmish minbardagilar. (Sobir A.)

Yuqorida keltirilgan epigrammada ham lakonik uslubdan samarali tarzda foydalanilgan. Muallif ilgari surgan g‘oya va ayanchli haqiqat sodda va qisqa shaklda, ortiqcha sifatlar va bo‘rttirishlarsiz ifodalangan. Epigrammaning eng asosiy shart ham shundaki, kichkina hajmda, kinoyaviy shaklda va o‘tkir haqiqatga ega ekanligidir. Ayni xususiyatlar esa lakonik uslub orqali yanada yorqinroq va ta’sirliroq shaklda namoyon bo‘ladi. Vaholanki, yuqoridagi misralar orqali butun xalqning, millatning ijtimoiy va siyosiy holati bir nechta gaplar bilan muallif tomonidan mohirona shaklda ochib berilganligining guvohi bo‘lamiz.

XULOSA

Xullas, so‘zlashuv nutqida lakonizmning o‘ziga xos xususiyatlari vaziyat va suhbatdoshlarning umumiy tajribasi bilan uyg‘unligi sababli, nutqda tayyorgarlik ko‘rmaslik va amaliyotning yetishmasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holat sifatida qaralishi mumkin. Lakonik uslub adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida keng miqyosda qo‘llaniladi. Ammo, odatda, badiiy nutq har doim ham lakonizمنى afzal ko‘ravermaydi va eng mohir yozuvchilargina kerakli o‘rinlarda lakonizmdan ustalik bilan foydalana oladilar. Shu bilan birga, lakonizm turli xil janrlarni mukammal darajada, maromiga yetkazib ifodalanishida o‘z hissasini qo‘sha oladi va mazmunni yanada yorqin va ta’sirchan qilib ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdumannatova N. “Hotamnoma” asarida lakonizm va alogizmlarning qo‘llanilishi. // SamDu ilmiy axborotnomasi. – Samarqand: 2023, No 4. – B.59.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 b.

3. Faulkner, G. The art of brevity: crafting the very short story. University of New Mexico Press, 2023. – 205 p.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 272 b.
5. To‘rayeva B. Adabiyot nazariyasi. – T.:Effect-D, 2020. – 189 b.
6. Umurov. H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Xalq merosi, 2004. – 264 b.
7. Literary Minimalism: 3 Characteristics of Literary Minimalism – 2025 – MasterClass
8. The meaning of the frog and old pond haiku poem by Matsuo Basho – Masterpieces of Japanese Culture
9. Алиакбар Собир (1862-1911) — ziyouz.uz

REFERENCES

1. Abdumannatova, N. (2023). The use of laconism and alogisms in the work “Hotamnoma”. SamDu scientific newsletter. No. 4.
2. Boboev T. (2002). Basics of literary studies. Tashkent: Uzbekistan.
3. Faulkner, G. (2023). The art of brevity: crafting the very short story. University of New Mexico Press.
4. Sultan I. (2005). Literary theory. Tashkent, Teacher.
5. To‘rayeva B. (2020). Literary theory. Tashkent, Effect-D.
6. Umurov H. (2004). Theory of literary studies. Tashkent, People’s heritage.
7. Literary Minimalism: 3 Characteristics of Literary Minimalism – 2025 – MasterClass
8. The meaning of the frog and old pond haiku poem by Matsuo Basho – Masterpieces of Japanese Culture
9. Алиакбар Собир (1862-1911) — ziyouz.uz